

BADIIY NUTQNING O'ZIGA XOS SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich
Asqaraliyeva Dilshoda Xojiakbar-
qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uslubiyat haqida tushuncha berib o'tiladi, qolaversa, badiiy nutq jarayonidagi semantic xususiyatlar haqida to'xtab o'tiladi. Uslubiyat –tilning murakkab tomonlarini o'rgatadi. Badiiy uslubning bo'linishi, uning tarmoqlari haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: uslubiyat, badiiy uslub, semantic xususiyat, poetik uslub, masal uslubi, ertak uslubi, obrazlilik, so'z tanlash, badiiy nutq, so'zlashuv nutqi, sheva elementlari.

Annotation:

This article provides an overview of stylistics and discusses the semantic features that appear in the process of artistic speech. Stylistics teaches the complex aspects of language. The article also presents opinions on the classification of artistic style and its branches.

Keywords: stylistics, artistic style, semantic features, poetic style, fable style, fairy-tale style, imagery, word choice, artistic speech, colloquial speech, dialect elements.

Uslubiyat- tilshunoslikning eng qiziqarli sohalaridan biri bo'lib, o'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolarini yechishda, badiiy tasvir vositalarini asarlarda namoyon bo'lishi xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishga ko'maklashmoqda. Badiiy asar tiliga bag'ishlangan va uslubiyat nuqtai-nazaridan bajarilgan ilmiy ishlar ichida tasviriy vositadan, ma'no ko'chishining turli usullari tadqiq etilgan ilmiy ishlar bizning e'tiborimizni tortadi. Ayniqsa, metofofa-metonimiya va sinekdoxa kabi tasviriy vositalarning ma'lum bir

ijodkor asarlari tilidagi o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham mas'uliyatli, ham qiziqarlidir.

Uslubiyat –tilning murakkab tomonlarini o'rgatadi. Shuning uchun ham u fonetika, leksikologiya, grammatika bilan chambarchas bog'liqdir. Uslubiyatning vazifalarini professor A.I.Efemov o'zining “Stilistika russkogo yazika” asarida shunday ko'rsatadi: “Uslubistikaning bosh vazifasi tasviriy vositalarning badiiy va boshqa asarlar uslubida qanday funksiyalarni bajarishni o'rganishdir. Uslubistik funktsiya – deganda esa so'zlar, iboralarning tasvirlashdagi roli ijtimoiy sharoitda bog'liq bo'lgan ishlatilish maqsadini anglashini tushunmoq lozim”.

Badiiy uslub adabiy tilning shakllanishi uchun muhim rol o'ynadi.U adabiy tilning asosini tashkil qiladi. Badiiy uslub boshqa uslub turlaridan keng qamrovliligi, turli ifoda vositalariga boyligi bilan farqlanib turadi.Chunki, badiiy uslubda uslublarning barcha turlarining namunalarini (so'zlashuv nutqi, ilmiy nutq, rasmiy nutq, publitsistik nutq, maktubiy nutq, ilmiy nutq uslublar) ishlatiladi.

Badiiy uslub inson amaliy faoliyatning barcha sohasini qamrab olishi, umunga qaratilganligi,barcha kasbkor egasi uchun mo'ljlanlanganligi bilan boshqa nutq uslublaridan farq qiladi.¹ Badiiy uslubda hayot voqealari va kishilar to'g'risida oddiy axborotlar berilmaydi, aksincha,ular o'quvchi ko'z o'ngida, jonli tarzda so'z bo'yoqlari yordamida barcha detal va xarakter xususiyatlari xayol pardasi ortida gavdalantirilib,o'quvchida estetik zavq uyg'otadi,salbiy yoki ijobiy shaxs, hodisalarga nisbatan jiddiy qarash, kurash tuyg'usi hosil etiladi , shuningdek,o'quvchi voqelik ichiga tortiladi va natijada yuksak badiiy zavq oladi.Demak, badiiy uslubning vazifasi estetik zavq va voqelikka biror munosabat uyg'otishdir.

Badiiy uslub boshqa uslublar kabi o'z ichki bo'linishlariga ega. Masalan, poetik uslub, masal uslubi, ertak uslubi kabilarga bo'linadiki, ularning har biri o'ziga xos tasvir vositalariga ega. Badiiy uslubning vositasi ham tildir. Lekin bunda til aloqa vazifasini obraz, xarakter va nafis manzaralar yaratish orqali bajaradi,shu yo'l bilan uning ta'sir etish

¹ Doniyorov. A.”Badiiy nutq stilistikasidan materiallar.Guliston,1988 10-bet

harakatga keltirish vazifasi namoyon bo'ladi. Badiiy nutqning quyidagi muhim tomonlari bor:

- a) badiiy asar birinchi navbatda kommunikativ va estetik funksiyani bajaradi;
- b) badiiy uslubda umumnutqiylik hodisasi mavjud;

Bu uslubning yana bir tomoni so'z qo'llashda chegaraning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'ladi.

Obrazlilik har qanday san'at asarining bosh me'zonidir. Badiiy obrazlilik so'z, ibora gap ishlatish san'ati va mahorati demakdir. Adabiyot shu xususiyati bilan san'atning boshqa turlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham bo'sh asar deyilganda, birinchi navbatda, yozuvchining voqelikni so'z bo'yoqlari orqali o'z holicha, ya'ni biqiq holda tasvirlay olmaganligi nazarda tutiladi.

Har bir yozuvchining o'ziga xos so'z tanlash va ishlatish usuli bo'ladi

Badiiy uslubga xos bo'lgan eng muhim xususiyat unda tantanali emotsional so'zlarning ko'p ishlatilishidir. Sabo, yel, chehra, tabassum, takalluf, muhabbat, muyassar, alvon, moviy, silsila shular jumlasidandir. Badiiy asar turli mavzularda bo'lishi va turli davrning xilma-xil faoliyatini aks ettirishi mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslubda tilning leksik qatlamiga oid barcha so'z, ibora va frazeologik iboralardan keng foydalaniladi. Zamonaviy mavzuga oid asarlarda esa qo'llanmaydi, aksincha bugungi kun leksik qatlamidan, shu jumladan, o'rniga ko'ra, dialektizm, jargo, argo va boshqalardan foydalaniladi. Bu bilan obraz yaratishda bevosita ifodaga obrazning qaysi sheva yoki kasb hunar vakili ekanini qo'shimcha izohsiz tasvirlashga erishiladi. Badiiy uslubda so'z yaratish uni ko'chma ma'noda qo'llash, iboralarni qayta ishlash kabi jarayon kechadi. Bular yozuvchining mahoratiga, ijodiy qobiliyatiga bog'liq. Bunda yozuvchi xalq jonli tilidan keng foydalanadi.

So'z tanlash badiiy asarning janr xususiyatlariga ham bog'liq. Masalan, arxaik so'zlar ba'zan davr koloriti, shaxs xarakterini ochish uchun xizmat qilsa, ba'zan kulgu mazax uchun qo'llaniladi. Masalan A. Qodiriyning asarlarida ishlatilgan arxaik so'zlar davr koloritini ko'rsatishga, satirik asarlarida esa shaxslar ustidan kulishga, mazaxga xizmat qildirilgan.² Nutq uslublari haqida gap ketganda ularning har biri uchun xoslangan til hodisalari borligi

² Iminov.M, Numonov.T, Boboxonova.D. "O'zbektili uslubiyati masalalari" Namangan" 2007 y 21-23-betlar

hamisha ta'kidlanadi. Masalan, bir uslubga xoslangan so'z ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o'tkazilishi nojoiz, o'rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda uslubiy jo'yalilik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, og'zaki va yozma nutqning voqe bo'lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko'ra har ikki nutq shaklining o'ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor.³ Individual uslub o'ziga xos estetik idrokka va didga ega bo'lgan chinakam yuksak iste'dod sohibining ijodidagina bo'rtib ko'rinuvchi belgidir.

“Kuchsiz yozg'uchilarning uslublari bir - biriga o'xshab qoladi. Ular oddiy uslubda umumiy til uslubida yozadilar. Shoir- yozuvchi san'atkorlikda ko'tarila boshlagan soyi o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydi. Shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tugal, komil bo'lgan ularga yarasha bir uslubi ham borliqqa chiqqan bo'ladir.”⁴

Bugungi davr adabiyoti rivojiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlariga murojaat qilamiz. O'tkir Hoshimov voqelikni badiiy estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik, grammatik imkoniyatlaridan foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi, so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanish va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirish bilan xarakterlanadi.

Tilning vazifadosh uslublari ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini aks ettiradi, shu sohada mehnat qilayotgan inson faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farq qiladi. Badiiy uslub esa hayotning hamma tomonlarini qamrab olishi bilan, barcha nutq uslublarining unda qo'llanishi bilan farqlanadi. Badiiy adabiyot turli kasb-hunar egalarining hayotini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o'rnini aks ettirgani uchun unda til va nutq vositalari o'ziga xos holatda qo'llaniladi. Boshqa nutq uslublari u yoki bu voqea-hodisa haqida xabar berish uchun xizmat qilsa, badiiy uslub ma'lumot berish bilan birga estetik va emotsional ta'sirni ham ifodalaydi. Badiiy uslub hikoya, qissa, roman, she'riyat va hattoki kichkina janrdagi afandi latifalarida ham ishlatiladi. Unda til — obraz, xarakter va manzaralar

³ N. Mahmudov. Nutqning jo'yaliligi. O'zbek tili va adabiyoti 2007 3-son 16-bet.

⁴ A. Fitrat “Adabiyot qoidolari” Toshkent “O'qituvchi”, 1995-yil 23-bet

yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Barcha nutq uslublarning o'ziga xos so'zlari va iboralari mavjud. Garchi, rasmiy va ilmiy uslubda iboralar kam darajada ishlatilsa-da, ular nisbatan «xususiylashgan», badiiy uslubda esa birinchi marta qo'llanilayotgan so'z va iboralar yozuvchi va shoirning yangi yaratgan ifodalari bo'lishi mumkin. Chunki muallif o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan manzara yoki shaxsni o'zi xohlagandek ifodalash uchun mavjud so'zlardan foydalanmay, hali hech kim qo'llamagan yangi so'zlarni yaratadi. Ko'rinadiki, badiiy uslub turmushni aks ettirishning maxsus shaklidir. Badiiy nutq uslubi adabiy tilning ifodalanishi bo'lib, ayrim hollarda ba'zi maqsadlar bilan boshqa nutq ko'rinishlaridan ham foydalanishga to'g'ri keladi.⁵

Badiiy nutq barcha nutq uslublarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga so'zlashuv nutqi ham eng katta qismni tashkil etadi. Badiiy uslubning o'ziga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari mavjud.

Badiiy uslubda ijodkor erkin faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun u xohlasa so'zlashuv tilidan, xohlasa boshqa uslublardan foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir asar qahramonlarining faoliyatini ularning nutqi orqali ifodalaydi. Shuning uchun badiiy nutqda dialog, monolog bayonini qamrab oluvchi so'zlashuv nutqi keng ishlatiladi. Shunga ko'ra, so'zlashuv uslubida ishlaydigan barcha fonetik xususiyatlar bu uslubga ham xosdir. Ayniqsa, asar qahramonlarining qaysi sheva vakili ekanligini ko'rsatuvchi tovushlar talaffuzi bu uslubda aniq ko'rinadi. Yozuvchi yoki shoir tilning yashirin imkoniyatlaridan keng foydalanib, badiiy nutqda yangi so'z va yangi iboralarni yaratadi. Yozuvchining mahorati shundaki, asarlarida ishtirok etgan personajlar nutqida jonli so'zlashuvga xos xususiyatlar bo'rtib turadi. Asar qahramonlari o'zaro so'zlashuvda ham yoki o'z ichki nutqida so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni, adabiy tilda uchramaydigan ibora va maqollar ishlatadilar. Bu esa asarlar tilining sodda va ifodali, ta'sirchan va bo'yoqdor, eng asosiysi, ishonarli chiqishiga xizmat qiladi.

So'zlashuv nutqi deganda kishilarning kundalik faoliyatda o'zaro aloqasini ta'minlovchi og'zaki nutq tushuniladi.⁶ Til va nutqning yozma shakllarida yoki yozib o'qib

⁵ Saodat Sultonova, O'lmas Sharipova O'zbek tili stilistiksi

⁶ O'riboyev B So'zlashuv nutqi.-Toshkent Fan 1979, 9-bet

berilgan holatlarda soʻzlovchi yoki yozuvchi shaxs maʼlum tayyorgarlik koʻrishga, oʻylashga, gap soʻzlarni qayta oʻylab koʻrish va oʻzgartirish imkoniyatiga ega boʻladi. Buning uchun unda vaqt ham, imkoniyat ham mavjuddir. Bunday nutqlarni hatto soʻzlovchi va yozuvchidan tashqaridagi kishilar ham qarab chiqishi, qayta koʻrishi, lozim boʻlgan oʻrinlarni toʻgʻirlashi mumkin.

Badiiy uslubda sheva elementlari passiv lugʻatga xos soʻz va iboralar, boshqacha aytganda, adabiy til normalariga mos kelmaydigan fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar erkin ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
2. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давоми – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Ишонч, 2010, 8 декабрь.
3. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011, 22 январь.
4. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
5. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. - 173 б.
6. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
7. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011, 22 январь.

8. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –
Тошкент: Ўзбекистон, 2011.